

## **11-Mavzu. Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatishda servis va lizing xizmatlarini tashkil etish**

### **Reja:**

1. Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatishda servis va lizing xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmasi.
2. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatishda servis va lizing xizmatlarini tashkil etish tushunchasi. Servis xizmatini tashkil etish.
3. Lizing xizmatini amalga oshirish tizimi. Lizing xizmatini mohiyati, turlari va o'ziga xos xususiyatlari.

**Tayanch iboralar:** Bozor infratuzilmasi, bozor kon'yukturasi, marketing, lizing, xizmat ko'rsatiladigan lizing, moliyaviy lizing, liverij lizing, lizing obyekti, «Paketdagi» lizing, ichki lizing, tashqi xalqaro lizing.

### **Foydalangan adabiyotlar.**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Samatov G.A., Yodgorov J.Yo., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Darslik. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». - Toshkent: ToshDAU taxririya-tashriyat-nashriyat bo'limi, 2005. - 508 b.
  2. Samatov G.A., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Ma'ruza matni. - Toshkent: ToshDAU taxririya-tashriyat-nashriyat bo'limi, 2008. - 120 b.
  3. Samatov G.A., Rustamova I.B., Gaybullayev O.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish fanidan amaliyot darslari uchun uslubiy ko'llanma. - Toshkent: ToshDAU taxririya-tashriyat-nashriyat bo'limi, 2008. - 120 b.
  4. Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. Darslik. - Samarqand: Samarqand qishloq xo'jalik instituti, 2004y.
  5. Xakimov.R, Yusupov.E.D. "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti". O'quv qo'llanma. Toshkent- 2004 y.
- Xorijiy adabiyotlar:

6. Agrarmanagement Jens Pape, Clemens Morath, Reiner doluschitz ISBN-10:3-8252-3587-4, EAN:978382523587
7. Barrick, R. K. Harmon, H. L. Animal Production and Management Ed: Gregg Division McGraw-Hill (1988-02-01) ISBN 10: 007003852X / ISBN 13: 9780070038523
8. Modernes Agrarmanagement: Betriebswirtschaftliche Analyse-und Planungsvefahren MuBhoff, Hirschauer (2013) 3. Auflage, Vahlen-Verlag, Munchen.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22 oktyabr 2012 yildagi «O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4478- sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 sentyabrda Namangan viloyatiga 29-30 sentyabr kunlari Farg'ona viloyatiga tashriflari chog'ida bergan topshiriqlari bo'yicha chora-tadbirlar.
3. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. - T.: «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi», 2004. - 346 bet.
4. Komiljonov B.I. Innovatsion menejment uslublarini takomillashtirish. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2007.
5. Samatov G'.A, Yodgorov J.Yo, Rustamova I.B. Qishloqda zamonaviy bozor infratuzilmasini kompleks rivojlantirish va servis xizmatini tashkil etishning asoslari (fermerlar tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha biznes maktablari tinglovchilari uchun qo'llanma).-T.:ToshDAU taxririya-tashriyat-nashriyat bo'limi, 2004y.
6. Umurzoqov U.P. va boshq. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-

moliya”, 2007. - 276 b.

7.Farmonov T.H. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. - T.: «Yangi asr avlodi», 2004. - 144 s.

8.Shakirov F.K., Korolev Yu.B., Pastuxov A.K. i dr. Organizatsiya sel'skoxozyaystvennogo proizvodstva i menedjment: uchebnik dlya vuzov. - M.: Kolos OOO, 2008. - 607 s.

### **11.1. Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatishda servis va lizing xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmasi.**

Bozor infratuzilmasi - bu turli institutlar va kelishtiruvchi tuzilmalar tizimi bo'lib, ular mahsulot ishlab chiqaruvchilar (xizmat ko'rsatuvchilar) va iste'molchilarni butun bir bozor kengligi bo'yicha birlashtiradilar. Infratuzilmaning maqsadi talabning to'lov qobiliyati cheklanganligi sharoitida, kelishtiruv asosida, bozor ishtirokchilari manfaatlarini o'zaro muvofiqlashtirib, ularning foydasini maksimallashtirishdir.

O'z maqsadlarini amalga oshirish uchun infratuzilma quyidagi masalalarni yechadi:

- o'z foydasini maksimallashtirish maqsadida o'zining xarajatlarini kamaytiradi;
- bozor kon'yukturasiga qarab, ishlab chiqarishga bo'lgan buyurtmalarni ko'paytirish yoki kamaytirish yo'li bilan indikator vazifasini o'taydi;
- birja mexanizmidan foydalanib, jamiyat manfaatlariga mos keladigan iste'mol mollariga, ishlab chiqarish vositalariga, ko'p qimmatli ashyolarga, korxonalar, narxini aniqlaydi;
- marketing asosida xizmatlar va tovarlar bozorini o'rganib barcha iste'molchilar nomidan buyurtmachi funksiyasini bajaradi, ishlab chiqarishni tartibga soladi va boshqaradi.

Infratuzilma faoliyatining samarali bo'lishi uchun quyidagi fazilatlarga ega bo'lishi kerak:

- mobillik-samarali foydalanish maqsadida resurslarni bir joydan boshqa joyga ko'chirish imkoniyati;
- bozorda mavjud agentlarning infratuzilmadan foydalanishi mumkinligi, ya'ni hududiy joylashishidan qat'iy nazar barcha mijozlar uning xizmatidan foydalanishi mumkinligi;
- sharoitga moslasha bilishi - infratuzilma tarkibiy qismlarining o'zaro birlashishi, o'ziga yangi funksiyalarni o'z bilishligi;
- mustahkamligi - o'z zimmasiga olgan mas'uliyat va vazifalarni o'z vaqtida sifatli qilib bajarilishi;
- muvozanatbardoshligi, talab va taklifning o'zgarishidan qat'iy nazar o'z imkoniyatlarini ishga sola bilishi;
- o'z-o'zini tartibga solish imkoniyati, ya'ni mavjud daromadlar doirasida faoliyat ko'rsata bilishi;
- monopolizmni paydo bo'lishi va rivojlanishiga yo'l qo'ymasdan ichki raqobatni rivojlantirish imkoniyatlari.

Infratuzilma barcha iqtisodiy tizimning tarkibiy qismlaridan bo'lib, o'zining ko'rsatadigan ko'p qirrali xizmatlari tufayli xalq xo'jaligining barcha tarmoq va korxonalarining ichki iqtisodiy-huquqiy faoliyatini tashkil etishda asos bo'lib hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyat miqyosida infratuzilma uchta yo'nalishda, ya'ni ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor munosabatlariga mos ravishda ajralib chiqadi va shakllanadi. Bu infratuzilmalarni bir-biridan ajratish, farqlash hamda ularning asosiy mohiyatlarini ifodalovchi ilmiy ta'riflash nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga egadir. Shunga ko'ra bu infratuzilmalarga quyidagi ta'riflarni berish to'g'ri va asosli bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mohiyat jihatidan har bir infratuzilma (ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmalari) moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari va korxonalari hamda jismoniy shaxslarning maqsadli faoliyati yo'nalishlarini samarali va to'xtovsiz amalga oshirishlari uchun xizmat ko'rsatuvchi obyektlar majmuidan iboratdir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish qonuniyatlari va zaruriyati o'ziga xos yangi bir infratuzilmani shakllantirishni muqarrar qilib qo'ydi, uning maqsadi va vazifalari ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalari hamda faoliyat yo'nalishlaridan ko'p jihatdan farq qiladi. Bu infratuzilma bevosita iqtisodiyotning barcha subyektlari o'rtasida sodir bo'ladigan bozor munosabatlari ichida

O'z faoliyatini yuritadi, shuning uchun ham u nafaqat moddiy ishlab chiqarish sohalariga, balki ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi obyekt va subyektlariga, jismoniy shaxslarga ham bir xil darajada ta'sir etadi, xizmat ko'rsatadi. Bu bozor infratuzilmasi huquqiy va jismoniy shaxs maqomidagi barcha sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi) va xaridor (iste'molchilar) o'rtasida sodir bo'ladigan ko'p qirrali bozor munosabatlarining shakllanishida bevosita ishtirok etuvchi, ularni vujudga keltiruvchi, bog'lovchi, muvofiqlashtiruvchi, boshqaruvchi, nazorat qiluvchi, tekshiruvchi, maqsadli yo'naltiruvchi va ishlab chiqarishdan toki iste'mol qilishgacha bo'lgan jarayonlarning bir tekis va to'xtovsiz kechishi uchun shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratish maqsadida xizmat ko'rsatuvchi jabha va muassasalarni o'z ichiga oluvchi bir yaxlit majmuadir.

Demak, bozor infratuzilmasi tarkibini tashkil etuvchi subyekt, tashkilot, korxonalar va muassasalar, nafaqat moddiy ishlab chiqarish sohalariga, balki ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalari doirasiga kiruvchi barcha subyektlarga hamda jismoniy shaxslarga bir xil ta'sir etish xususiyatlariga egadirlar va shu sababi ham ular jamiyatning har bir soha va jabhalari bilan o'zaro aloqada bo'ladilar.

Bozor infratuzilmasi subyektlarining o'zaro aloqalarini va ularni iqtisodiyotning boshqa tarmoq hamda muassasalari bilan integrasiyasini rivojlantirishda umum-iqtisodiy va bozorning o'ziga xos dasturlarini joriy qilish, o'z navbatida davlat va bozor boshqaruv tizimlarini muqobillashirishni talab qiladi. Buning uchun bozor infratuzilmasining shakllanishi bilan bog'liq quyidagi vazifalarni, ya'ni:

- majburiy davlat buyurtmasi mexanizmi va ishlab chiqarishni markazlashgan tizimda resurslar bilan ta'minlashni tugatish;

- xususiy tadbirkorlik yo'nalishlarini kengaytirish;

- xo'jalik yuritish subyektlariga o'z ishlab chiqarish moliyaviy faoliyatlarini tashkil etish va yuritishda erkinlik va mustaqillik berish;

- bankrotga uchrash mexanizmi va talablarini qat'iy amalga oshirish;

- jismoniy shaxslar va ularning muayyan maqsadli guruhlariga qonunchilik doirasida o'z faoliyatlarini mustaqil belgilashlariga sharoitlar yaratish;

- tovarlar bozorini shakllantirish uchun zarur bo'ladigan muassasalar tizimini tashkil etishning qonuniy asos va yo'nalishlarini ishlab chiqish;

- qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlardan bo'sh joylar hisobiga yuksak kasbiy mahoratga ega mutaxassis kadrlar tayyorlash va ularni bozor infratuzilmasi muassasalariga malakalari bo'yicha joylashtirish;

- aholining ishga va intellektual qobiliyatiga ega qatlamlarining mulkdorlik huquqlarini tiklash asosida jamiyatning ishlab chiqarish va iqtisodiy bo'g'inlarida demokratik boshqarish jarayonida ishtirok etishlari uchun keng imkoniyatlar ochib berish kabi vazifalarni amalga oshirish muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish va uning sharoitida ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy masalalarni zamon talabi asosida hal etishga imkon beruvchi bozor infratuzilmasi subyektlari bosqichma-bosqich oddiydan murakkabga qarab rivojlanmoqda.

Bozor sharoitida asosiy maqsad bo'lgan foyda olish yo'li bilan o'z mehnat jamoa a'zolarining moddiy va ma'naviy turmush darajasini ko'tarish maqsadida faoliyat yurgizadigan har bir xo'jalik subyekti u yoki bu muammoni hal etishda bozor infratuzilmasining qaysi muammo yoki tashkilot bilan munosabatlarda bo'lishini aniq belgilashlari, uning asosiy vakolat va vazifalarini belgilashlari muhim rol o'ynaydi. Shu bois bozor infratuzilmasi subyektlarining faoliyat yo'nalishlari, vakolat doiralari hamda ichki va tashqi iqtisodiy aloqalarga qay darajada ta'sir etishlari bo'yicha tavsiflanishi katta ahamiyatga egadir.

Hozirgi davrda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning iqtisodiy natijalari faqatgina agrar sektor va uning tarkibiy qismi bo'lgan qishloq xo'jaligi tarmog'iga bog'liq bo'lmay, balki unga yordam beruvchi tarmoq va sohalar faoliyati bilan uzviy bog'liqdir.

Shunday qilib, asosiy ishlab chiqarish, hamda noishlab chiqarish sohalarini rivojlantirishga yordam beruvchi tarmoqlar sifatida xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish kuchlarining

yig'indisiga qishloq xo'jaligi infratuzilmasi deyish mumkin.

Joylarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va sotish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va punktlarni tashkil etish, qishloq joylarida bozor infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor berish ko'zda tutilmoqda.

Buni birgina paxtachilik tarmog'i rivojiga ko'maklashuvchi infratuzilmalar faoliyati misolida ko'rishimiz mumkin.

2000-2005 yillarda qishloq joylarda qo'shimcha 171 ta auditorlik, 164 ta yuridik va konsalting, 162 ta axborot xizmatlari va 12 ta eksportni rivojlantirish markazlarini tashkil etish ko'zda tutilmoqda. Bulardan tashqari xomashyo tovar birjalarida, ulgurji savdo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishni yo'lga qo'yish, lizing hamda sug'urta kompaniyalari, tijorat va xususiy banklar va o'zaro kreditlash jamiyatlari bilan uzviy aloqada faoliyat olib borishni takomillashtirish ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda qishloqda bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasining pastligi, fond, tovar, pul va mehnat bozorlarining sekin shakllanishi qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning barqaror-ligini ta'minlashda ma'lum uzilishlarga sabab bo'lmoqda.

Shuning uchun ham O'zbekiston agrar sektorida bozor infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirishda chet el tajribalarini O'rganish asosida, milliy va mahalliy xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy-amaliy yechimlarini ishlab chiqish va uni tadbiiq etish dolzarb muammo hisoblanadi.

Qishloq bozor infratuzilmasini savdo-vositachilik, moliya-kredit, tashqi iqtisodiy, axborot va iqtisodiy-huquqiy xizmatlar ko'rsatishda ishtirok etib, qishloq xo'jaligi subyektlarining iqtisodiyotidagi barcha subyektlari bilan moddiy va moliyaviy resurslar harakatini bog'lovchi zveno bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida bozor infratuzilmasining barcha elementlari moliyaviy-huquqiy, savdo-vositachilik, axborot va iqtisodiy aloqa shakllari bo'yicha amalga oshmoqda. Qishloq bozor infratuzilmasini yaxlit infratuzilma sifatida yalpi ichki mahsulotidagi hissasini aniqlash qiyin muammo hisoblanadi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy masalalarni zamon talabi asosida hal etishga imkon beruvchi bozor infratuzilmasi subyektlari bosqichma-bosqich oddiydan murakkabga qarab rivojlanmoqda.

Bozor infratuzilmasining umumiy yo'nalishdagi (banklar fond birjasi, XIF lar singari) muassasalari bilan bir qatorda, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishdan to iste'moligacha bo'lgan jarayonlar bilan bog'liq infratuzilma subyektlarini rivojlantirish strategik vazifalariga kiradi. Bu sohada aksiyadorlik usul va tamoyillari asosida faoliyat yurgizadigan Respublika tovar xomashyo birjasi va uning viloyatlaridagi bo'limlari alohida o'rin tutadi.

Yuqorida nomlari ko'rsatilgan xizmatlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mahalliy xomashyolarni qayta ishlash, kredit tarmoqlari haqida ma'lumotlar hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari va tayyor mahsulotlarni sotishda keng amaliy yordam beradi.

## **11.2. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatishda servis va lizing xizmatlarini tashkil etish tushunchasi. Servis xizmatini tashkil etish.**

Qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat ko'rsatish tizimini bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida takomillashtirish yo'nalishida sezilarli amaliy ishlar qilindi. Jumladan 1995 yildan boshlab respublikamizning xar bir viloyat tumanlarida Davlat aksionerlik jamiyati mashina-traktor parklari (MTP) tashkil etilib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 10 martdagi 106-sonli qaroriga asosan Muqobil MTP lar tashkil etilib, xozirda bunday MTP larining faol ishlashi kuzatilmoqda.

Biroq qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika vositalarining ba'zi bir qismlari va turlari Respublika ishlab chiqarilsada, katta quvvatdagi traktorlar qishloq xo'jalik mashinalari va eng zarur extiyot qismlar, xorijiy mamlakatlar, jumladan AQSh, Rossiya, Ukraina va Belorussiya Respublikalaridan keltirilishi bir qancha muammolar paydo qilmoqda. Xususan ushbu texnika vositalari narxlarining to'xtovsiz o'sib borishi, davlatlar o'rtasidagi o'zaro

iqtisodiy munosabatlarni izga tushmaganligi tufayli xo'jaliklarda zarur bo'lgan texnika vositalarini yetkazib berish imkoni chegaralanmoqda.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarining shakllanish va tarmoq moddiy-texnika ta'minoti tizimida iqtisodiy isloxlarni amalga oshirishda ijara asosida tashkil qilingan lizing tadbirkorlik faoliyati muxim ahamiyat kasb etadi.

ASM tarmoqlarida lizingni rivojlantirish qishloq xo'jalik korxonalaridagi mavjud moliyaviy qiyinchiliklarni bartaraf etish, ishlab chiqarishni yangi texnologiya va zamonaviy texnikalar bilan qurollantirishga imkoniyat yaratadi.

Lizing tizimini respublikada shakllantirish borasida O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'grisida»gi, «Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'grisida» gi qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1997 yil 27 fevraldagi 111- sonli «O'zKeysagrolizing» O'zbek-amerika qo'shma lizing kompaniyasini tuzish to'g'risidagi, 1999 yil 30 oktyabrdagi «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» aksionerlik lizing kompaniyasini tuzish to'g'risidagi va «Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2000 yil 2 noyabrdagi qarorlari muxim ahamiyat kasb etadi. Xozirgi vaqtda ASM tarmoqlarining moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash yo'lida «O'zbeklizing Interneysnl» aksionerlik jamiyati, «O'zKeysagrolizing» qushma lizing kompaniyasi, «Bank-lizing» va «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» kompaniyalari faoliyat ko'rsatmoqda. Davlat buyurtmasiga asosan «O'zagromashservis» uyushmasiga esa 824 ta «Keys-2166» g'alla o'rish kombayni, 1157 ta

«Magnum» rusumli xaydov traktorlari va bir necha o'nlab «Keys-2022» rusumli paxta terish mashinalari lizing asosida berildi va ular qiymatini to'lash shartnomaga asosan bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ammo bugungi kunda ASM tarmoqlarida lizing tizimidagi tashkiliy, iqtisodiy va xuquqiy munosabatlar zamon talablariga javob bermaydi, lizingga berilayotgan qishloq xo'jaligi texnikalari, maxsulotlarni qayta ishlovchi asbob-uskunalar narxlarini oshirishi ularning eskirishining xisoblash uslublaridagi nomutanosibliklar qishloq xo'jaligida muammolar paydo qilmoqda.

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxlarning jadal sur'atda davom etishi ko'p jixatdan tarmoqlarning texnika-texnologiya va boshqa ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanishi, xom-ashyo sifatida sotilayotgan qishloq xo'jalik maxsulotlarini tayyor maxsulot xoliga keltirib sotish maqsadida qayta ishlash korxonalarini tashkil etish, xamda turli mulkchilik sharoitlarida faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik subyektlariga barcha yo'nalishlar bo'yicha servis xizmatini samarali tashkil etishga bog'liq.

Iqtisodiy isloxlarni amalga oshirish va xo'jalik yuritishning turli shakllari vujudga kelish sharoitida mavjud texnika vositalaridan samarali foydalanish o'z navbatida bozor infrastrukturasi shakllantirish, xizmat ko'rsatish bo'limlarini tashkil qilish xamda ularning faoliyatini takomillashtirishni taqozo qiladi. Shuningdek qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy axvolini qoniqarsizligi, moddiy texnika resurslari va uskunalar narxlarining yuqoriligi tufayli fermer va boshqa xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar texnika va uskunalarini sotib olish va ulardan unumli foydalanish imkoniyatiga ega emaslar. Bu esa muqarrar ravishda moddiy texnika bazasi bilan ta'minlash, ularga xizmat ko'rsatish tizimlarini tubdan islox qilish asosida, tarmoqlarda bozor munosabatlari tizimini rivojlantirish zarurligini taqozo qiladi. Mulchilik va xo'jalik yuritishning turli shakllari vujudga kelar ekan, mavjud imkoniyatlardan to'laroq foydalanish, mulk egalari xo'jalik yuritishi, ularni boshqarish shakli o'zgara borib, xar bir mulk subyekti o'z manfaatini tushinib yetgan xolda, xo'jalik faoliyatini amalga oshirishi xamda zarur bo'lgan resurslar bilan ta'minlash borasida yangi usullarni ishga soladi.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy isloxlarni oqilona tashkil etish va boshqarishda, undagi mavjud moddiy texnika ta'minotining tashkiliy shakllarini isloh qilinishiga olib kelishdir. Ushbu muammoni ijobiy hal etilishi mahsulot yetishtirish xajmini ko'paytirishga va tannarxini arzonlashtirishga olib keladi, natijada xom-ashyo sifatida arzon baxolarda sotilayotgan maxsulotlarni tayyor xolga keltirib sotishda qo'l mexnatini kamaytirish va mexnat unumdorligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan bir qator yangi bozor institutlari yaratiladi. Bundan ko'zda tutilgan

maqsad qishloq xo'jaligi lizing tizimini yaratish va uni takomillashtirishdan iboratdir. Lizing - bu ijara munosabatlarini aloxida bir turi bo'lib unda kelishuvchi taraflardan biri (lizing beruvchi) ikkinchi tomon (lizing oluvchi) ning topshirigiga binoan lizing oluvchiga egalik qilish va foydalanish uchun, uchinchi bir taraftan (sotuvchi) lizing obyektini shartnoma shartlarida belgilangan qiymatlarda sotib olishidir. Bunda lizing obyektiga egalik xuquqi toki u lizing oluvchi tomonidan to'liq sotib olingunga qadar lizing beruvchiga ta'lluqli bo'ladi. Moliyaviy jihatdan lizing obyektiga bo'lgan egalik xuquqi, agar barcha to'lovlar to'liq xajmda amalga oshirilgan bo'lsa, shartnoma muddati tugamasdan turib xam lizing oluvchiga o'tishi xam mumkin.

### **11.3.Lizing xizmatini amalga oshirish tizimi. Lizing xizmatini mohiyati,turlari va o'ziga xos xususiyatlari.**

O'zbekiston Respublikasida lizing kompaniyalarini tashkil etish, ularning faoliyatini takomillashtirish xamda lizing operasialarini amalga oshirish tartibini bir tizimga keltirish maqsadida 1999-yilning 14-aprelida «Lizing to'grisida» gi qonunni qabul qilinib, u qishloq xo'jaligida turli mulk shakliga asoslanib faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning yangi texnika, texnologiya, bino, inshoot va boshqa turdagi asosiy vositalarga nisbatan o'sib borayotgan extiyojlarini to'laroq qondirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Lizing to'grisidagi qonun xujjatlari lizingni amalga oshirish paytida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida «Lizing to'grisida» gi qonun xujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, u xolda xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Qonunga binoan amalga oshiriladigan barcha turdagi lizing operasialari bo'yicha yozma ravishda shartnomalar tuziladi. Lizingga oluvchi jismoniy shaxs bo'lgan xollarda esa lizing shartnomasi notarial tasdiqlanishi lozim.

Lizing operasialarining subyektlari o'rtasida tuziladigan shartnomalarda quyidagilar aks ettirilishi talab etiladi:

- lizing obyektining tavsifi;
- shartnomaning umumiy summasi;
- tomonlarning lizing obyektini olish va berish bilan bogliq bo'lgan o'zaro majburiyatlari;
- lizing obyektini yetqazib berish, montaj kilish va foydalanishga topshirish tartibi;
- lizing obyektlaridan foydalanish, ularga karash va ta'mirlash yuzasidan tomonlarning majburiyatlari;
- shartnomaning amal qilish muddati.

Ayrim xollarda shartnoma subyektlarining kelishuviga binoan lizing shartnomalariga qo'shimcha ravishda quyidagi shartlar kiritilishi mumkin:

- lizing obyektini sotib olish tartibi va muddatlari;
- lizing shartnomasini o'zgartirish va bekor kilish tartibi va tamoyillari;
- lizing obyektini so'gurta kilish tartibi;
- fors maj or xolatlari;
- lizing subyektlari tomonidan lizing shartnomasi shartlariga rioya etilishini nazorat kilish tartibi.

Imzolangan lizing shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish, agar qonun xujjatlarida va shartnomada boshqa tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, taraflar kelishuviga binoan amalga oshirilishi mumkin.

Qabul qilingan «Lizing to'grisida» gi qonunning 11, 12 xamda 13 moddalarida lizing subyektlarining o'zaro xuquq va majburiyatlari aks ettirilgan bo'lib, unga asosan lizing shartnomasi bo'yicha mol-mulkni olish va uni lizing oluvchiga egalik qilish xamda foydalanish uchun berish, lizing obyektini (agar shartnomada shunday shartlar nazarda tutilgan bo'lsa) saqlab turish, ta'mirlash, unga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha lizingga oluvchi oldida o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni o'z vaqti to'liq bajarish kabi majburiyatlar ega bo'lsa, uning xuquqlari quyidagilardan iborat:

- lizing oluvchining, lizing obyektidan qanday sharoitlarda foydalanayotganligini va uni belgilangan maqsadlarga muvofiq ishlatayotganligini lizing shartnomasi shartlariga xamda qonun xujjatlari talablariga muvofiq nazorat qilish;
- lizingga oluvchining roziligi bilan lizing obyektini va uning sotuvchisini tanlash;
- qonun xujjatlarida xamda lizing shartnomasida nazarda tutilgan xollarda va tartibda lizingga oluvchidan lizing obyektini olib qo'yish;
- lizingga oluvchi lizing shartnomasini jiddiy tarzda buzgan taqdirda barcha lizing to'lovlarini muddatidan ilgari to'lashni, xud yetkazilgan zararni undirib yoki lizing obyektini qaytarib olgan taqdirda shartnomani qaytib olishni talab etish.

Agar lizing obyektini, lizingga beruvchining aybi bilan yetkazib berilmagan bo'lsa yoki lizing shartnomasi shartlariga nomuvofiq bo'lsa, lizingga beruvchi lizingga oluvchining roziligi bilan o'zi lozim topgan darajada bajarmagan lizing shartnomasi shartlarini tuzatib berishga yoki lizingga oluvchiga boshqa lizing obyektini taklif etishga xaqli.

O'z navbatida lizingga oluvchiga lizing obyektini qabul qilib olish, undan foydalanish, uni shartnoma shartlariga muvofiq saqlab turish, lizing to'lovlarini o'z vaqtida to'lab turish xamda lizing shartnomasida boshqacha tartibda belgilanmagan bo'lsa, lizing obyektini o'z xisobidan ta'mirlash va saqlash xarajatlarini qoplash kabi majburiyatlar yuklangan. Shuningdek, lizing shartnomasi bekor qilingan xollarda lizingga oluvchi lizingga obyektini lizing beruvchidan qanday xolatda olgan bo'lsa, shunday xolatda me'zorida eskirish va taraflarning kelishuvida shartlashilgan o'zgarishlarni xisobga olgan xolda qaytarishi shart.

Lizingga oluvchining boshqa lizing subyektlariga nisbatan yuqorida qayd etilgan majburiyatlari bilan bir qatorda ma'lum xuquqlarga ega bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- > lizing obyektini va sotuvchisini mustaqil tanlash;
- > lizingga beruvchidan lizing shartnomasi shartlarini bajarmaganligi tufayli yetkazilgan zararining qoplanishini talab qilish;
- > sotuvchiga lizing obyektini oldi-sotdi shartnomasidan kelib chiqib, talablarni inobatga olgan xolda uning sifati, budligi, topshirish muddati, kafolatli ta'mirlash va xokozolar xususiyada talablar qo'yish;
- > lizing obyektini yetkazib berilmagan taqdirda, to'liq yetkazib berilmagan, yetkazib berish muddati o'tkazib yuborilgan yoki sifati talab darajasida bo'lmaganda lizing obyektidan voz kechish va shartnomani bekor qilinishini talab etish;
- > lizing shartnomasi muddatidan oldin bekor qilingan xollarda, bo'nak sifatida to'langan to'lovlar va boshqa xarajatlarni lizing obyektidan foydalanish davrida olingan foydaning qiymatini chegirib tashlab, o'ziga qaytarib berishini talab qilish.

Qabul qilingan «Lizing to'grisida»gi qonunga binoan, agar lizing shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha sotuvchining lizingga oluvchiga nisbatan xuquq va majburiyatlari lizing beruvchiga nisbatan o'rnatilgan xuquq va majburiyatlaridek bo'ladi. Bunda lizingga oluvchi lizing obyektini oldi-sotdi shartnomasini bekor qilish xuquqiga ega emas.

Lizing obyektini bilan bogliq barcha xavflar, shu jumladan uning tasodifiy yo'qolishi yoki tasodifan buzilishi, o'g'irlanishi, barvaqt eskirishi yoki eskirish xavflari lizing shartnomasida nazarda tutilgan tartibda lizingga oluvchiga o'tadi. Xavflar mulk lizingga oluvchiga o'tgan dakiqadan e'tiboran lizingga oluvchi lizing obyektini xar qanday tarzda yo'qotilishi yoki shikastlanishi uchun lizing shartnomasi amal qiladigan muddat davomida javobgar bo'ladi. Lizing xizmatini moxiyati, turlari va o'ziga xos xususiyatlari.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohatlarning amalga oshirilishi, turli shakldagi mulkchilik subyektlarining faoliyat ko'rsatishi xamda ularning maydalashuvi texnika, texnologiya va boshqa turdagi mexnat vositalari bilan ularni ta'minlash xamda investisiya jara3nlarini moliyalashtirish manbalarini izlab topish kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Qayd etilgan muammolarni xal qilishning bir nechta yo'nalishlari mavjud bo'lib, ulardan biri lizing xizmati xisoblanadi.

Lizing - bu kapital quyilmalarini moliyalashtirishning o'ziga xos shakli bo'lib, mulklarni ijaraga olish shakli bilan o'xshashlik tomonlarga ega. Iqtisodiy munosabatlarning ijara shaklida, mulkni ijaraga oluvchi, mulk egasiga yoki moliya muassasasiga iste'mol qilingan qiymatni, ijara foizini va bank to'lovini to'lab boradi. Lizing shaklida esa mulkdan foydalanuvchi bir vaqtning o'zida, xam texnika vositasi yoki uskunalarni xarid qilishni, xam xaridni moliyalashtirishni amalga oshiradi.

Lizing vaqtincha bo'sh turgan yoki jalb qilingan moliyaviy mablag'lar evaziga sarmoya qo'yish bo'lib, bunda lizing beruvchi muayyan sotuvchidan shartnomada ko'zda tutilgan mulkni sotib olib, uning egasi bo'ladi va bu mulkni lizing xizmatchisidan xaq olib vaqtincha foydalanishga beradi. Sarmoya qo'yishning boshqa usullariga qaraganda lizingning asosiy afzalligi shundaki, tadbirkorlar asosiy fondlarni sotib olish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'larning bir qismigagina ega bo'lib turib, ishini boshlay veradi.

Lizing, tadbirkorlik faoliyatining yangi sohasi xisoblanib, u dastlab 50-yillarda G'arbiy Yevropadagi bir qator mamlakatlarda paydo bo'la boshladi. O'tgan davr mobaynida lizing operasialari katta xajmda o'sdi. Masalan, agar 60-yillar o'rtalarida AQSh da amalga oshirilgan lizing operasialarining qiymati 1 mlrd. dollarni tashkil etgan bo'lsa, xozirgi kunga kelib uning xajmi 270 mlrd. dollarni tashkil qiladi.

Lizing o'zida mashina, asbob-uskuna, transport vositalari, ishlab chiqarish inshootlarini qo'llashda, maxsuslashtirilgan moliyaviy (lizing) firmalar, kompaniyalar vositasida kapital quyilmalarini moliyalashtirishning maxsus shakllarini ifodalab, uchinchi shaxs uchun buyumlarga nisbatan mulkiy xuquqni yaratib beradi.

Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan xar qanday ashyolar, shu jumladan, korxonalar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari va boshqa ko'chmas mulk, lizing obyektlari bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunga binoan yer uchastkalari va boshqa tabiat obyektlari, shuningdek erkin muomalada bo'lishni qonun xujjatlari bilan taqiqlangan yoki muomalada bo'lishini aloxida tartibi belgilangan mol-mulk lizing obyektlari bo'lishi mumkin emas.

Xalqaro amaliyotda lizing munosabatlarini amalga oshirish muddatlaridan kelib chiqqan xolda u, quyidagi turlarga bo'linadi:

- Qisqa muddatli (renting yoki charter) - bir yilgacha bo'lgan muddat;
- O'rta muddatli (xayring) - bir yildan uch yilgacha;
- Uzoq muddatga - uch yildan oshiq muddatga.

Tijoratda amalga oshiriladigan lizing operasialarining turlari ko'p bo'lishiga qaramasdan ular, moxiyatiga ko'ra asosan ikki turga bo'linib, birinchisi - ijaraga olinayotgan asosiy fondlar qiymati to'la qoplanadigan lizing bo'lsa, ikkinchisi - to'la qoplanmaydigan lizing turidir. (' 5-chizma)

Asosiy vositalar qiymatini to'la qoplamaydigan lizing - operativ lizing deb ataladi. Bu xolda lizing beruvchining uskuna sotib uni garovi bilan bog'liq xarajatlari lizing muddati mobaynida to'la qoplanmaydi, chunki shartnomaning amal qilish muddati uskuna ishlashining me'yoriy muddatidan qisqadir. Ta'kidlash kerakki, lizing beruvchi, obyektini vaqtincha foydalanishga bir necha marta berar ekan, shunga muvofiq tarzda talab bo'lmaganida uning qoldiq qiymatini qoplashdagi tavakkalchilik bir necha martaga ortadi. Operativ lizingda uskunaning texnikaviy garovi, tuzatish, sug'urta majburiyatlari lizingga beruvchining zimmasiga tushadi.

Ijraga beriladigan asosiy vositalar qiymati to'la qoplanadigan xollardagi lizing - moliyaviy lizing deb ataladi. Uskunani vaqtincha foydalanishga berilayotgan muddati, shu uskuna qiymatining to'la yoki katta qismi ishlatilishi va yeyilish (amortizasiya) muddatiga yaqinlashib qoladi. Shartnoma muddati mobaynida lizingga beruvchi to'lovlar xisobidan, mulkning butun qiymatini qaytarib oladi. Moliyaviy lizingda odatda, uskunaning yoki texnikaning garovi, tuzatish, sug'urta majburiyatlari lizing oluvchi zimmasida bo'ladi.

Moxiyatiga ko'ra amalga oshiriladigan moliyaviy lizing turi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- ❖ lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing obyekti, qoldiq qiymat bo'yicha lizingga

oluvchining qo'liga o'tadi;

- ❖ lizing shartnomasi muddatida lizing obyektining xizmat muddatini 80 %-i dan ortig'i yoki lizing shartnomasi muddati tugagach, lizing obyektining qoldiq qiymati uning boshlangich qiymatining 20% idan kamini tashkil etadi;
- ❖ lizingga oluvchi tadbirkor, fermer lizing obyektini qat'iy belgilangan yoki lizing shartnomasi muddati tugaganda aniqlanadigan narxda sotib olish xuquqiga ega;

O'z navbatida tuziladigan moliyaviy lizing shartnomalari uch turga bo'linadi:

- > xizmat ko'rsatiladigan lizing - moliyaviy lizing bo'yicha tuziladigan shartnoma bilan bir qatorda lizing obyektini o'rnatish, texnik xolatini nazorat qilish, joriy xamda kapital ta'mirlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha pudratchilar bilan qo'shimcha shartnoma tuziladi;
- > Liverij lizing - lizing objekti qiymatining katta qismi uchinchi tomon (investorlar) mablagi xisobidan qoplanib, shartnoma muddatining birinchi yarmida obyektini eskirish (amortizasiya) summasi xamda olingan ssuda mablag'lari uchun foiz to'lovlari to'lab boriladi;
- > «Paketdagi» lizing - lizingning bu turi foydalanishga topshirilgan bino va inshootlar qiymati kredit mablaglari xisobidan qoplangan xollarda qo'llaniladi.

Shuningdek lizing operatsiyalari amalga oshiriladigan bozor sektoriga qarab quyidagilarga bo'linadi:

- ichki lizing (bitimning barcha vakillari, bir mamlakat vakillari bo'lgan xollarda);
- tashqi xalqaro lizing (lizingga beruvchi va lizingga oluvchi turli mamlakatlarning vakillari bo'lgan xollarda).

Xarakatdagi xar bir mulk lizing objekti bo'lishi mumkin, bozorda erkin sotilishi ta'qiqlangan mulklar bundan mustasnodir. Lizing bitimida odatda bir nechta subyekt ishtirok etib, ular quyidagilardan iborat:

- ❖ mulkni sotuvchi (uskuna chiqarayotgan zavod, uning dilleri yoki disrib'yuteri);
- ❖ lizingga beruvchi (mamlakatdagi yoki xorijdagi lizing kompaniyasi);
- ❖ lizingga oluvchi (tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun uskuna kerak bo'lgan jismoniy yoki xuquqiy shaxs);
- ❖ lizing kompaniyasini uskuna sotib olishi uchun uni mablag' bilan ta'minlayotgan bank (yoki boshqa kredit muassasasi);
- lizingga beruvchining mulkini so'gurta qiluvchi, shuningdek uskuna sotib olish uchun lizingga beruvchiga berilayotgan kreditlarni qaytara olmaslik yoki xaq to'lamaslik tavakkalchiligidan sug'urta qiluvchi sug'urta kompaniyasi.

Dunyo tijorat amaliyotida lizing operatsiyalarining amalga oshirish bo'yicha jaxon tizimi mavjud bo'lib, uning birinchi bosqichida, lizingga oluvchi lizing kompaniyasiga zarur uskunalarni yetkazib berishini so'rab murojaat qiladi va u bilan lizing shartnomasi tuzadi. Ikkinchi bosqichda, lizingga beruvchi lizingga oluvchiga o'z puliga yoki qarzga olgan kredit puliga mulk sotuvchidan xarid qilgan uskunani topshiradi. Lizingga mol oluvchi o'z-o'zidan bir qancha ustunliklarga - imtiyozlarga ega bo'lib qoladi, chunonchi:

- korxonaga mulkiga solinadigan soliq miqdori kamayadi, chunki lizing obyektlari qiymati lizing shartnomasi muddati tugab, mulk uning ixtiyoriga o'tgandan keyingina mulkni o'z balansida aktivida aks ettiradi. Bungacha o'sha qiymat lizing beruvchining balansida turadi;
- foyda solig'i miqdori kamayadi, chunki lizing to'lovlari maxsulot tannarxiga kiradigan xarajatdir. Bundan tashqari, lizing oluvchida buxgalteriya xisobi soddalashib, soliqning bir qismini to'lash va qarzni xisoblash lizing kompaniyasi zimmasida bo'ladi;
- lizing mulkini sotuvchi, lizing operatsiyalarida qatnashar ekan, maxsulot ishlab chiqarishni qaytadan boshlashga, xatto uni kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi, xamda maxsulot sotishdan va lizing uskunasi xarid qismlar sotishdan, bu uskunalarga servis xizmati ko'rsatishdan va uni takomillashtirishdan daromadi ortadi.

Qishloq xo'jaligida olib borilayotgan agrar iqtisodiy siyosat, eng avvalo tarmoq ishlab chiqarishida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, xo'jaliklarni iqtisodiy mustaqillik asosida,

maxsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish jarayonlarida kooperasiya tizimini shakllantirish bilan bir qatorda agro servis xizmati ko'rsatish tizimini xamda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida moddiy texnik ta'minoti munosabatlarini takomillashtirishga katta e'tibor berilmoqda.

«O'zqishloqxo'jalikmashlizing» aksiyadorlik lizing kompaniyasi va uning filiallari tomonidan buyurtmalarni ko'rib chiqish va qishloq xo'jaligi texnikasini moliyaviy lizingga berishning vaqtinchalik tartibi belgilangan bo'lib unga muvofiq qishloq xo'jaligi texnikasini lizingga olish istagida bo'lgan xo'jalik subyektlari, o'rnatilgan namuna asosida quyidagi xujjatlarni rasmiylashtirishlari talab qilinadi:

- > qishloq xo'jalik texnikasini moliyaviy lizingga olish buyurtmasi;
- > ta'sis xujjatlarining nusxasi (korxonaning ustavi, statistik organ ro'yxatidan o'tqazilganligi xaqidagi guvoxnomasi);
- > lizingga oluvchining oxirgi xisobot chorak (yili) dagi soliq inspeksiyasi tomonidan tasdiqlangan buxgalteriya balansi, ilovalari bilan birgalikda (debitorlik va kreditorlik qarzlari xaqida ma'lumot xizmat ko'rsatuvchi bankdan ssuda qarzlari xaqida ma'lumotnoma);
- > texnikani moliyaviy lizingga olish davrida texnik-iqtisodiy asoslash;
- > so'gurta polisi (Ekspert kengashining ijobiy qarori qabul qilinganidan so'ng);
- > zaruriyat bo'lganda bank kafolat xati, ki uchinchi shaxs kafilligi shartnomasi;
- > zaruriyat bo'lganda lizingga oluvchining moliyaviy xolatini chuqurroq o'rganib chiqish maqsadida debitorlik va kreditorlik qarzlarning ,yma ro'yxati, asosiy vositalarning tarkibi, o'z mablaglari xisobiga boshqa ,ki shu'ba korxonalar tashkil etishdagi ishtiroki xaqidagi ma'lumotlar.

Lizingga oluvchi tomonidan qayd etilgan xujjatlar to'plami belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» kompaniyasining filialiga taqdim etilishi talab qilinadi. Filial taqdim etilgan xujjatlarni ko'rib chiqib, lizingga oluvchining moliyaviy-iqtisodiy axvoli xaqida xulosa tayyorlaydi va uni filialning Ekspert Kengashiga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi. Filialning ekspert Kengashiga moliyaviy lizingni amalga oshirish bo'yicha ijobiy qaror qabul qilingan xollarda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi xuzuridagi qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamgarmasi ajratadigan mablaglar xajmi va sotuvchining lizingga beriladigan texnikani ishlab chiqarish muddatidan kelib chiqqan xolda lizingga oluvchi bilan kompaniya va sotuvchi o'rtasida moliyaviy lizing to'grisidagi shartnoma tuziladi.

Moliyaviy lizing shartnomasining umumiy qiymati lizing qiymatlarining foizlarini xisobga olgan xolda aniqlanib, lizing to'lovlari xisob-kitob jadvalida ko'rsatilgan miqdor va muddatlarda lizingga oluvchi tomonidan to'lab borilishi shart. Lizing to'lovlari o'z vaqtida amalga oshirilmagan xollarda, muddati o'tqazib yuborilgan qiymatdan xar bir kechiktirilgan kun uchun lizing oluvchi 0,2 foiz miqdorda jarima (penya) to'lashi ko'zda tutilgan.

Texnikaga mulk xuquqi lizingga beruvchi nomidan saqlangan xolda lizingga oluvchiga qabul qilib olish - topshirish dalolatnomasi asosida qabul qilinib, ushbu dalolatnoma imzolanganidan so'ng (lizingga beruvchi, lizingga oluvchi va sotuvchi), lizing bitimini amalga oshgan deb sanaladi.

### **Glossariy**

**BOJ-** (arab.-o'lpon, soliq) - bojxona nazorati ostida davlat tomonidan mamlakat chegarasidan olib o'tiladigan tovarlar, mol-mulk va qimmatbaho qog'ozlardan undiriladigan pul yig'implari.

**BOJXONA** - chegara orqali o'tadigan jami yuklarni, shu jumladan bagaj va pochta jo'natmalarini nazorat qiladigan davlat muassasasi. U o'tkazilayotgan yuklarni tekshirish va ulardan yig'implarni undirish bilan shug'ullanadi. Bojxonalar, odatda, dengiz va daryo portlarida, xalqaro aeroportlarda, temir yo'l stansiyalarida, chegara hududlarida va mamlakatning yirik markazlarida joylashadi.

**BOZOR INFRATUZILMASI** - sotuvchi va xaridor o'rtasida bozor munosabatlari shakllanishini, rivojlanishini ta'minlaydigan tashkilotlar, muassasalar, idoralar, korxonalar majmuasi. Uning tarkibiga savdo korxonalari, ta'minot tashkilotlari, valyuta va qimmatbaho

qog'ozlar birjasi, transport, aloqa va boshqa xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar kiradi.

**BOZOR MUVOZANATI** - bozordagi talab va taklifning miqdori va tarkibiy jihatidan bir-biriga muvofiq kelishi. Agar shunday muvofiqlik bo'lmasa, bozor muvozanati izdan chiqqan hisoblanadi. Talab taklif uzoq vaqt bir-biridan ajralib qolsa, bozor o'zining me'yordagi holati, faoliyatini yo'qotadi.

**BOZOR** - sotuvchi va xaridor o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmui. Bozordagi talab va taklif iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy omillar ta'sirida shakllanadi. Talab yo'q, o'tmay qolgan narsa, mol haqida «B. kasod», talab yuqori bo'lgan, tez o'tadigan narsa, mol haqida esa «B. chaqqon» deyiladi. «B. ko'tarmaydi»-bu tovarni ushbu narxga bozorda hech kim olmaydi degan ma'noni anglatadi.

**BOZOR KON'YUKTURASI** - ayrim bozorlarda muayyan xolatlarining mavjudligi. Bozor kon'yukturasi muayyan davrdagi bozor holati, bozorda muvozanatning mavjudligi yoki buzilganligi bilan xarakterlanadi.

**BOZOR MEXANIZMI** - bozor iqtisodiyotining faoliyatini tartibga solish va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishni ta'minlovchi dastak va vositalar. M: baho, talab va taklif, raqobat, pul- kredit.

**INFRATUZILMA** - ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish shart-sharoitini ta'minlovchi tarmoqlar majmui. Ishlab chiqarishni energiya bilan ta'minlash, transport, aloqa, informatika va boshqalar ishlab chiqarish I. ni tashkil qiladi. Aholining turmush tarzini ta'minlovchi uy-joy, sog'liqni saqlash muassasalari, o'quv yurtlari, fan va shu kabi sohalar ijtimoiy I. ni tashkil qiladi.

**INJINIRING** - tijorat ko'rinishida har tomonlama maslahatlarini beruvchi mustaqil faoliyat doirasi. Bu faoliyat ishlab chiqarishning o'sishini, mahsulotlarni sotishni, ob'ektlarni qurish va ulardan foydalanish jarayonini ta'minlaydi. Injiniring xizmati ikki guruhga bo'linadi : 1) ishlab chiqarish jarayonini tayyorlash; 2) ishlab chiqarish va mahsulot sotish jarayonini to'la ta'minlash.

**INJINIRING FIRMALARI** - ichki va xalqaro bozorlarda injiniring xizmatini ko'rsatish bo'yicha ixtisoslashgan korxonalar, firmalar. Bu firmalar bir korxonalar, kompaniya faoliyati bilan cheklanmaydi. Ular turli tarmoqlarda xizmat ko'rsatishlari, ko'p ta'minotchilar va pudrat firmalari bilan aloqa qilishlari mumkin.

**LIZING** - asosiy fondlarni uzoq muddatga ijaraga olish. Yangiliklarni, ishlab chiqarish va sotishni moliya bilan ta'minlash usuli. L. sanoat korxonalariga bir yo'la katta miqdorda pul sarf qilmasdan kerakli mahsulotlarni olish imkonini beradi. L. ikki ko'rinishda : moliyaviy va tezkor bo'ladi. Moliyaviy L. ijaraga olingan fondning to'la qiymatini va ijarachi foydasini qoplashni ko'zda tutadi

**MARKETING** - (inglizcha market-bozor) holatini o'rganish, uni oldindan baholash orqali tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish hamda shu yo'l orqali tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish, eng yuqori foyda olishni ta'minlash. Maxsus M. Dasturlari orqali amalga oshirilib, xaridorlarni va raqobatchilarni o'rganish asosida tovarlar sifatini yaxshilash, narxini o'zgartirish, reklamani joylashtirish, xaridorlarni qoniqtiradigan tovar va xizmatlarni yetkazib berish kabi chora-tadbirlar qo'llaniladi.

**XIZMAT KO'RSATILADIGAN LIZING** - moliyaviy lizing bo'yicha tuziladigan shartnoma bilan bir qatorda lizing obyektini o'rnatish, texnik xolatini nazorat qilish, joriy xamda kapital ta'mirlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha pudratchilar bilan qo'shimcha shartnoma tuziladi;

**MOLIYAVIY LIZING**- Ijraga beriladigan asosiy vositalar qiymati to'la qoplanadigan xollardagi lizing;

**LIVERIJ LIZING** - lizing objekti qiymatining katta qismi uchinchi tomon (investorlar) mablagi xisobidan qoplanib, shartnoma muddatining birinchi yarmida obyektini eskirish (amortizatsiya) summasi xamda olingan ssuda mablag'lari uchun foiz to'lovlari to'lab boriladi;

«**PAKETDAGI**» LIZING - lizingning bu turi foydalanishga topshirilgan bino va inshootlar qiymati kredit mablaglari xisobidan qoplangan xollarda qo'llaniladi.

**ICHKI LIZING** - bitimning barcha vakillari, bir mamlakat vakillari bo'lgan xollarda;

**TASHQI XALQARO LIZING** - lizingga beruvchi va lizingga oluvchi turli mamlakatlarning vakillari bo'lgan xollarda.